

SALJUQIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

Tojiboyev Ziyovuddin Akmal o'g'li

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo'naliishi 20/2 – guruh talabasi

Ilmiy rahnar: Baxrom Abdug'anievich Saidusmonov

CHDPU O'zbekiston tarixi kafedrasи o'qituvchisi

Email: baxrom.said@mail.ru

Annotatsiya:

Bu maqolada Saljuqiylar davlatining O'rta Osiyoda joylashgani, Kichik Osiyoga qanday qilib borib qolgani va qayerlarda ko'chmanchi bo'lib yurgani shu davrda mavjud bo'lgan davlatlar bilan aloqalari qanday bo'lgani haqida batafsil malumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Somoniylar, Qoraxoniylar, Marv, Xuroson, Zarafshon, Nurota, Jand, Shohmalik.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

XI asrning birinchi yarmidagi saljuqiylar harakati, garchi qisman Movarounnahr hududida kelib chiqqan bo`lsa ham, ammo undan uzoq joylarda yuz berdi. Bu harakat bilan bog`liq voqealar Old va O'rta Osiyo sharqida katta aks sadoga ega bo`ldi. Saljuqiylar harakatiga Saljuqning nabiralari aka-uka To`g`rulbek va Chag`ribek Davud hamda ularning amakisi Musa Yabg'u boshchilik qilar edi. Ular qiniq nomli qadimgi turkman qabilasidan edilar. Aka-uka saljuqiylar ko'chmanchi turkman qabilalari ustidan boshchilik qilgan edilar. Bu qabilalar tarkibiga boshqa turkman urug`- qabila urug` va qabilalar birlashmalari bilan ham qarindoshlik munosabatida bo'lgan birqancha urug` va qabilalar kirgan bo`lsa kerak.

Dastlab saljuqiylar quyi Sirdaryodagi Jand degan joyda ko`chib yurar edilar, ammo Shohmalik nomli hokim bilan urushib qolganlari tufayli Zarafshon daryosining o`ng qirg`og`iga, somoniylar tomonidan ularning ko`chib yurishi uchun berilgan Nur(Nurota)ga ketishga majbur bo'lgan edilar. Somoniylar Saljuqiylar bilan totuv yashar edilar, bu totuvlik somoniylarning qoraxoniylarga qarshi olib borgan kurashlarida turkmanlarning somoniylarga bergen yordamiga asoslangan bo`lib, ammo bu yordamga doim ishonish qiyin edi.

XI asning birinchi yarmida turkman – saljuqiylarning ahvoli juda og`irlashdi. Gap shundaki, Movaraunnahrga, shu jumladan Zarafshon vodiysiga qoraxoniylar bilan birga ko`pchilik chigil, qarluq, yag`mo va boshqa turk qabilalari ham keldi. Ularning hammasiga ko`chib yurish uchun joy kerak edi. Shu jumladan, turkmanlar o`rnashib olgan Zarafshon daryosining o`ng qirg`og`idagi Nurdan to Samarqandgacha bo'lgan qismi ham kerak edi.

Movoraunnahrda Ilekxon Alitadin xo'yajinlik qilib turgan davlarda (1034 yilda o`lgan) saljuqiylarga unchalik tegmas edilar. Uning vafotidan keyin Alitaginning o`g`illari yosh

bo`lgani uchun butun ishni o`z qo`liga olgan Tunush davrida ularning ahvoli juda og`irlashdi. Nihoyat , sharoit ularni Zarafshon vodiysiini tashlab ketishga majbur qildi. Xorazmshoh Xorun 1034-yilda ularga raboti Mashoi , Sho`raxona va Goviyhar hududlaridan yer ajratib berdi , ammo Jand hokimi ularga hujum qildi va 8 ming kishini o`ldirdi. Saljuqiylarning boshliqlari yuqorida aytib o`tilganidek To`g`rulbek , Chag`ribek Davud va Musa Yabg`u bu yerdan ketishga va Mahmud G`aznaviyning o`g`li Masuddan joy so`rashga ahd qildilar. (Ma`sud 1030-yildan 1041-yilgacha podshohlik qilgan edi).

Saljuqiylar o`zlariga Saraxs, Marv, Abiverd, Nes va Farovi rayonlarida ko`chib yurishlariga ruxsat berilishini so`rab , Xurosonning G`aznaviy saroyiga elchilar yubordilar. Bu joylar ko`chib yurish uchun juda qulay edi ,

ulardan ba`zilari , masalan , Saraxs va Abiverd manzillarida bahorikor yerlar ko`p bo`lib , ko`chmanchilar tomonidan juda qadrlanar edi.¹

1025-yilda Mahmud davrida turkmanlar bilan bo`lib o`tgan hamma voqealar shunday kuchli tassurot qoldirdiki , Xuroson noibiga To`g`rulbekning vakillari bilan g`arazli munozaralar olib borishga to`g`ri keldi. Ammo turkmanlar juda matonatli edilar va nihoyat , to`liq bo`lmasa ham , o`z maqsadlariga erishdilar. 1035-yilda Nishopurda imzolangan shartnomaga ko`ra, ular Nes , Farovi va Dehiston deb nomlangan joylarni oldilar , ammo bu safar ham , bundan o`n yil ilgari bo`lgani kabi , dehqonchilik qiladigan aholi bilan tinch munosabatda bo`lolmadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Basan, Usmon Aziz. "Turk tarixshunosligidagi buyuk saljuqiylar." Edinburg universiteti, 2002 yil.
2. Tovus, A. C. S. "Buyuk Saljuqiylar imperiyasi." Edinburg: Edinburg universiteti matbuoti, 2015 yil.
3. Tovus, A. C. S. va Sara Nur Yildiz, eds. "Kichik Osiyo saljuqlari: O'rta asrlarda O'rta Sharqdagi sud va jamiyat." London: I.B. Tauris, 2013 yil.
4. Сайдусманов, Б. А. (2022). Развитие автомобильного и дорожного строительства в транспортной системе узбекистана.Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations,1(6), 13-17.
5. Сайдусманов, Б. А. (2022). Спортда ҳуқуқбузарликларнинголдиниолиши. Теоретические и практические проблемы, 1(2), 203-206.32.Сайдусмонов, Б. А. (2022). Тошкент вилоятида транспорт ва унинг коммуникация тизимининг ривожланиши.Academic research in educational sciences,3(5), 1299-1304.

1. ¹Tovus, A. C. S. "Buyuk Saljuqiylar imperiyasi." Edinburg: Edinburg universiteti matbuoti, 2015 yil.

-
6. Сайдусмонов, Б. А. (2022). Тошкент вилоятида транспорт турлари шаклланишининг тарихий босқичлари. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 498-506.
 7. Сайдусманов, Б. А. (2021). Жисмоний тарбия ва жисмоний маданият қадриятлартизимида. *Жисмонийтарбияваспортмутахассисларитаффакур*, 1(1), 240-241.